

JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Elov Sardor Ikromovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati"
mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi.

Phone: +99833 337-77-70.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11372858>

Annotatsiya. Maqolada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida umumiy xulosalar berilgan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergov qilishda sudga qadar ish yuritish bosqichini o'tkazish bo'yicha amaliy tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, jinoyat, jazo, huquqni muhofaza qilish organlari, tergov faoliyati, legallashtirish, dastlabki tergov, sudga qadar ish yuritish.

CHARACTERISTICS OF THE INVESTIGATION OF CRIME LAUNDERING PROCEEDS OF CRIMINAL ACTIVITIES

Abstract. The article describes the specific features of the investigation of crimes of money laundering. On the basis of the conducted research, general conclusions were given, practical recommendations were made for conducting the stage of proceedings before the court in the investigation of crimes of money laundering.

Key words: Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, crime, punishment, law enforcement agencies, investigative activities, legalization, preliminary investigation, proceedings before the court.

ХАРАКТЕРИСТИКА РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПО ОТМЫВАНИЮ ДОХОДОВ ОТ ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье описаны особенности расследования преступлений, связанных с отмыванием денег. На основе проведенного исследования даны общие выводы, даны практические рекомендации по ведению стадии досудебного производства при расследовании преступлений, связанных с отмыванием денег.

Ключевые слова: Уголовный кодекс Республики Узбекистан, преступление, наказание, правоохранительные органы, следственная деятельность, легализация, предварительное следствие, производство в суде.

KIRISH

Kriminalistik uslub tizimida jinoyat ishini qo'zg'atishning o'ziga xosligi avvalambor hodisa haqidagi dastlabki ma'lumotlarni tekshiruvini amalga oshirish imkoniyati va zaruriyati nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jinoyat belgilari mavjud ma'lumotlarni tekshirishda qo'llanadigan vosita va usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, tekshirish uchun JPKning 82-moddasi asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, jinoyat (jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida) to'g'risidagi ma'lumotlarni dastlabki tekshirish jarayonida tergovga vaziyatli yondashish boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 41-bobi, shuningdek JPK 321, 328-moddalarida jinoyat ishini qo'zg'atish qoidalarini belgilangan.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish fakti bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish, mazkur jinoyatning jinoyat-huquqiy va kriminalistik xususiyatlari inobatga olingan holda, umumiy qoidalar asosida qo'zg'atiladi.

JPK 322-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atishning asosi bo'lib jinoyat belgilarini ko'rsatuvchi ma'lumotlarning mavjudligi hisoblanadi.

JKning 14-moddasida jinoyatga berilgan ta'rifni tahlil qilish orqali uning belgilarini aniqlash mumkin. U quyidagilardan iborat: qilmishning huquqqa xilofligi; ijtimoiy xavfliligi; aybning mavjudligi; qilmish uchun jinoyat qonunida jazo belgilanganligi (jazoga sazovorligi). Har qanday ijtimoiy xavfli qilmishda ana shu belgilarning barchasi bir vaqtda mavjudligi uni jinoyat deb topishga asos bo'ladi. Ana shu belgilarning bittasi bo'lmasa qilmish jinoyat deb topilmaydi[1].

Kriminalistikaga oid adabiyotlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati belgilari mavjud ma'lumotlarga quyidagilar kiritiladi: qisqa vaqt oralig'ida mijozning hisobvarag'ida katta pul mablag'larining tezda to'planishi; mijozning hisobvarag'ida katta pul mablag'larining aylanishi va ularni tezlikda, xususan chet el banklariga joylashtirish; katta daromad keltirayotgan foydasiz biznes; katta yo'qotishlar evaziga, xuddi shuningdek moliyaviy operatsiyalar bo'yicha kam foizlarda pul mablag'larining joylashtirish[2].

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi "Iqtisodiy jinoyatlarga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-516-son Qonuni qabul qilinib, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi yangi tahrirda bayon etilib, JKda berilgan ta'rifga muvofiqlashtirildi, maxsus vakolatli davlat organining vakolat doirasi kengaytirildi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga 179³-moddasi yangi tahrirda berildi. Jumladan, 179³-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Mazkur moddaning birinchi qismiga muvofiq, ichki nazoratni, mijozlarni lozim darajada tekshirish natijalarini hujjatlashtirish va saqlashni, tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va hujjatlar bilan qayd etishni tashkil qilish va amalga oshirishga doir talablarni buzish, operatsiyani amalga oshirishni rad etish, xuddi shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga shubhali operatsiyalar haqidagi axborotni taqdim etmaslik, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki noto'g'ri axborot taqdim etganlik, qonun hujjatlari talablarining pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay to'xtatib qo'yishga yoki operatsiyalarni to'xtatib turishga oid qismini ijro etmaslik uchun hamda ikkinchi qismida ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirishning belgilangan tartibini tegishli nazorat qiluvchi, litsenziyalovchi va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan buzish, xuddi shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish munosabati bilan tijorat, bank sirini yoki qonun

bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni g'ayriqonuniy ravishda talab qilish, olish yoxud oshkor etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan[3].

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari ishlab chiqilgan.

Ichki nazorat qoidalari jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha gumonli va shubhali operatsiyalar, ularni aniqlash mezonlari va alomatlarini ko'rsatib o'tilgan.

Biroq, mazkur ichki nazorat qoidalari ko'rsatilgan shubhali operatsiyalarni aniqlash mezon va alomatlarini jinoiyat belgilari sifatida qarash mumkin emas.

Chunki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "har bir shaxsning mulkdor bo'lishi" belgilangan. Shuningdek, FKning 207-moddasi ikkinchi qismida xususiy bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmasligi o'rnatilgan. Bundan tashqari, mulk huquqini amalga oshirish, uni himoya qilishga qaratilgan qator huquq manbalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish fakti bo'yicha jinoiyat ishini qo'zg'atish uchun mol-mulk jinoiy yo'l bilan olingan va ushbu mol-mulk bilan JK 243-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlar sodir etilgan bo'lishi lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan jinoiyat belgilarini jinoiy daromadlarni legallashtirishga nisbatan olib qaraydigan bo'lsak, mazkur jinoiyat ijtimoiy xavfliligi bois JKda nazarda jinoiyatlar ro'yxatiga kiritilgan va bu qilmish uchun jazo belgilangan. M.H. Rustamboyev esa legallashtirish jinoiyati to'g'ri qasddan sodir etilib, jinoiyatning motiv va maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmasligini ko'rsatib o'tgan[4].

Demak, jinoiy daromadlarni legallashtirish belgilaridan biri bo'lgan qilmishning huquqqa xilofligi mulkning jinoiy yo'l bilan olinganligi va u bilan JK 243-moddasida ko'rsatilgan harakatlar amalga oshirilganligida ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 4-bandida "...shaxsning qilmishida JK 243-moddasida nazarda tutilgan jinoiyat tarkibi bor-yo'qligi to'g'risidagi masalani hal etish uchun har bir holda legallashtirilgan mulk jinoiyat natijasida kelib chiqqanligi fakti aniqlanishi shart",- deb ko'rsatilgan.

Rossiyalik olimlardan V.M. Aliyev va I.L. Tretyakovlar qonunda shakllantirilgan "jinoiy faoliyatdan olingan" tushunchasi mazkur holat bo'yicha jinoiyat ishini qo'zg'atish uchun pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning jinoiy yo'l bilan olinganlik fakti isbotlanganligi nazarda tutilishini ta'kidlaydi[5].

1990-yil 8-noyabrida Strasburg shahrida qabul qilingan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risida"gi xalqaro konvensiyaning 6-moddasi ikkinchi qismi "a"bandida pul mablag'larini tozalash jinoiyatini

kvalifikatsiya qilishda birinchi (asosiy) jinoyatning jinoiy yurisdiksiyaga tortilganligining ahamiyati yo'qligi ta'kidlangan.

Boshqa rossiyalik muallif I.A. Klepitskiy o'zgacha fikrni ilgari surib, pullarni tozalash to'g'risidagi normalarning qo'llash uchun shaxsning predikat jinoyati uchun oldin hukm etilganligi majburiy ahamiyatga ega emasligini ta'kidlaydi. Bunday vaziyatlarda predikat jinoyatning sodir etilganlik fakti pullarni tozalash to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan hukmda ham o'rnatilishi mumkinligini bildiradi[6].

A.I. Alyoshkinning fikricha, daromadning jinoiy yo'l bilan olinganlik fakti jinoyat ishi qo'zg'atish bosqichida emas balki, dastlabki tergovda isbotlanishi lozim[7].

SH.U. Imomov va U.X. Kobilovlar aybsizlik prezumpsiyasiga ko'ra shaxsning birinchi jinoyati bo'yicha aybi isbotlash bosqichida bo'lsa, mazkur ish bo'yicha ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar u aybsiz hisoblanishi va ushbu vaziyatda pul mablag'larini tozalash bo'yicha bir vaqtda jinoiy ta'qibni olib borishga qonuniy asos mavjud emasligini, shaxs JK 243-moddasi bo'yicha jinoyat subyekti hisoblanmasligini ta'kidlaydilar[8].

Bizning fikrimizcha, JK 243-moddasi bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish uchun daromadning jinoiy yo'l bilan olinganlik faktini qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan tasdiqlanishini shart qilib qo'yish mumkin emas.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish o'z mohiyatiga ko'ra, jinoiy daromadning kelib chiqish manbaini yashirishga, jinoyat izlarini yo'qotishga qaratilgan. Bu esa mazkur toifadagi jinoyatlarni tergov qilish, jinoyat belgilarini aniqlashda qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Jinoiy daromad qonuniy harakatlar, hattoki qonuniy hujjatlar bilan shu darajada niqoblanadiki, natijada bunday harakat xuddi normal fuqaroviy-huquqiy munosabatdek ko'rinadi.

Jinoiy daromadlar egalari o'z jinoiy faoliyatlarini niqoblash uchun ko'p hollarda turli xil firmalar, umumiy ovqatlanish joylari ochib olishi, mazkur tuzilmalar iqtisodiy jihatdan foyda bermasa-da, o'zlarining shohona hayot manbalarini go'yoki tadbirkorlik natijasidan olgandek qilib ko'rsatishga yordam beradi.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish fakti bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishning sababi bo'lib idoraviy tekshiruvlar natijasi yuzasidan nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslari bergan ma'lumotlar, shaxslarning arizalari bo'lishi mumkin.

Jumladan, 2022-yilda respublikamizda 51 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, shundan 42 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Iqtisodiy jinoyatchilikka va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan, 2 tasi esa IIV tergov organlari tomonidan qo'zg'atilgan. Deyarli barcha holatlarda jinoyat ishini qo'zg'atish asoslarini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlar, surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi tomonidan bevosita aniqlangan.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati, boshqa jinoyatlarga qaraganda, yangi jinoyat hisoblanib, u jamoatchilikka yaxshi tanish emas. Bu esa jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyati sodir etilgani haqida fuqarolarning surishtiruv va dastlabki tergov organlariga ariza bilan murojaat qilmasligiga, jinoyatning latentlik darajasi yanada oshishiga olib keladi.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish fakti bo'yicha jinoyat alomatlarini sinchkovlik va har tomonlama tekshirilishini ta'minlashda ishlashning o'ziga xos maxfiy shakli va usullaridan foydalaniladigan tezkor-qidiruv xizmatlari va bo'linmalarining xizmatlaridan foydalanish talab qilinadi[9].

Jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatida tezkor tekshiruv harakatlarining o'rni beqiyos bo'lib, quyidagilarni aniqlash uchun o'tkaziladi: jinoiy yo'l bilan olingan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklarning kelib chiqish manbalarini; tajovuz predmetini; legallashtirish usullarini, (jinoyatning sodir etilish mexanizmini); jinoyatchi shaxsi va uning o'zaro aloqalarini[10].

Ushbu holatlarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi Qonuni bilan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi[11].

Qayd etilgan qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorligida pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish yuzasidan ichki nazorat qoidalari ishlab chiqilgan.

Mazkur organ jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha shubhali operatsiyalarni tahlil qilar ekan, bunday ma'lumotlarda jinoyat belgilari mavjudligini aniqlaydi. Shubhali ma'lumotning o'zi jinoyat ishini qo'zg'atishga asos bo'lmaydi va bunday shubhali operatsiyalarni qabul qilish, qayd etish va ko'rib chiqish jinoyat-protsessual tartibda emas, balki ma'muriy ish yuritish tartibida rasmiylashtiradi.

Demak, bu jarayon jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichini tashkil etmaydi va o'z-o'zidan tergov harakatlarini amalga oshirish imkoniyatini bermasdan, faqat tezkor-qidiruv chora-tadbirlari natijasida jinoiy daromad olingan birinchi manbaga chiqish imkoniyatini yaratadi. Tezkor-qidiruv chora-tadbirlari natijasida olingan ma'lumot jinoyat protsessida daliliy ahamiyatga ega bo'lmasada, biroq huquqni muhofaza qilish organlar faoliyati tahliliga nazar soladigan bo'lsak, legallashtirish fakti bo'yicha ma'lumotlarni tergovgacha tekshirish bo'yicha oshkora tekshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish yo'li samarasiz hisoblanadi, chunki qo'llanilayotgan huquqiy choralardan xabar topgan jinoyatchilar o'zining faoliyatini to'xtatadi va hattoki, ko'pgina holatlarda tergovdan yashirinishga ham ulguradi[12].

Bu toifadagi jinoyat ishini qo'zg'atishning yana bir o'ziga xos xususiyati, jinoyat belgilarining dastlabki sodir etilgan jinoiy yo'l bilan mablag' topishga oid ishlarni tergov qilish chog'ida aniqlanishi hisoblanadi.

Ushbu jinoyat, aksariyat hollarda jinoiy daromadlarni, ayniqsa, moliyaviy-kredit sohasida legallashtirishda "haddan ziyod" turli xil hujjatlardan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Mazkur hujjatlar, bir tomondan, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishni murakkablashtiradi va hujjatlar bilan ishlashda professional tayyorgarlikni talab etadi. Ikkinchi tomondan, jinoiy daromadlarni legallashtiruvchi shaxs jinoiy mol-mulkka qonuniy tus berishda qonun hujjatlaridan foydalanib, boyliklarning qonuniy manbadan olinganligini "ro'kach qilish"ga atayin harakat qiladi. Bunda jinoyat subyekti jinoiy daromadlarni legallashtirishda foydalanilgan hujjatlarni

yashirishga emas, balki ularni huquqni muhofaza qilish organlariga ko'rsatishga ham intilishi mumkin.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarga va kriminal operatsiyalarga qonun, buxgalteriya, bank yoki moliyaviy hujjatlar me'yorlari asosida qonuniy tus berilishi legal biznesni (tadbirkorlikni, iqtisodiy faoliyatni) tashkil etish va yuritish niqobi ostida gumon yoki shubhalardan forig' bo'lish imkonini beradi. Jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni o'zida saqlagan hujjatlarni talab qilib olish ham bir vaqtning o'zida muayyan murakkabliklarga sabab bo'ladi, chunki jinoyat ishini qo'zg'atmasdan turib shaxsga tegishli hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi natijada jinoyat izlarini aniqlash imkoniyati pasayadi. Ushbu muammolar qatoriga bank yoki tadbirkorlik sirini kiritish mumkin.

Bosh prokuratura huzuridagi Departamentga shubhali operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning berilishi bundan mustasno. Boshqa surishtiruv yoki tergov organlarida esa bunday imkoniyat mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasida bu xildagi jinoyat yuzasidan ish qo'zg'atishining asosiy xususiyatlaridan yana biri, legallashtirishgacha, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklarni jinoiy yo'l bilan olishga qaratilgan, jinoiy jazolanadigan qilmishning sodir etilganligida hisoblanadi. Aks xolda, jinoiy mol-mulknigallamasdan turib uni legallashtirishga ehtiyoj bo'lmagan bo'lar edi.

Shu sababli jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatni tergov qilish, daromad olinishiga sababchi bo'lgan jinoyatni tahlil qilishdan boshlanadi. Bu jinoyat esa, O'zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismida nazarda tutilgan va uning sodir etilishi natijasida daromad olish mumkin bo'lgan har qanday jinoyat hisoblanishi mumkin.

Legallashtirish belgilari tadbirkorlik yoki biror bir iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda bo'ladigan pul mablag'lari bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar yoki oldi-sotdi, ijara, boshqa mulkiy bitimlarga oid ma'lumotlarni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Jinoiy faoliyat sifatida legallashtirish jarayonida doimo ikkita holat namoyon bo'ladi: a) jinoiy daromad to'plash ("iflos" pullar) va b) ularni hisobga olish va soliqqa tortishdan yashirish.

Bu ikkala fakt rasmiy hujjat yuritishda va "yashirin buxgalteriya"da namoyon bo'lib, qoida tariqasida jinoyatchi o'zining "xotirasi uchun" yonma-yon olib boradi.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish belgilari ayniqsa yuridik va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishda, ish yuritish usuli, tovarlar harakatida namoyon bo'ladi.

Agar korxonaning faoliyati tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsa, jinoiy daromad olish mahsulot xarajatining ishlab chiqarilgan tovar birligiga nisbatan ko'paytirish, rasmiy buxgalterlik hujjatlarida qimmatbaho xomashyo ko'rsatilib, aslida arzonidan foydalanish, shuningdek texnologik jarayonlarning sun'iy buzilishiga bog'liq bo'lib, natijada ro'yxatga olinmagan ortiqcha xom-ashyo yoki tovarlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Jinoiy yo'l bilan topilgan tayyor mahsulotlar saqlash uchun omborxonalarda to'planadi va hushyorlik bilan hisobga olinib, soliqqa tortishdan yashiriladi. Bunday hollarda rasmiy hujjatlar xaspo'shlanadi. So'ngra xom-ashyo, pullar, tovarlar inventarizatsiya, taftish, taqqoslama hujjatlarni yuritish vaqtida soxta tashkilotlarga beriladi. Qoida bo'yicha moddiy javobgar shaxs "yashirin buxgalteriya"ni yuritadi. "Iflos" pullarni tozalash kredit-moliya va bank, davlat mulkini xususiy lashtirish, turli xil sarmoya fondlari faoliyatidagi moliyaviy firibgarliklarning keng tarqalgan sohasi hisoblanadi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish belgilari jismoniy va yuridik shaxslarning haqiqiy daromadlari, uning manбайдan olinayotgan qonuniy daromadlarga to'g'ri kelmasligida ko'rinadi. Boshqacha aytganda, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan qilinayotgan turli ko'rinishdagi xarajatlar uning qonuniy yo'l bilan olayotgan umumiy daromadidan bir necha marotaba ko'p bo'ladi. Natijada, jismoniy yoki yuridik shaxslar qonuniy daromadidan tashqari jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarini yashirish yoki niqoblash uchun unga qonuniy tus beradi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atishning asosida pul mablag'lari va mol-mulkning jinoiy kelib chiqishini aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlarda ko'rinadi. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashga ixtisoslashgan bo'linmalarining materiallaridan foydalaniladi. Tergovchi surishtiruv organi bilan birgalikda materiallarni tahlil etish va jinoyat ishini qo'zg'atish rejasini ishlab chiqadi. Ikkinchi holatda esa surishtiruv organlari legallashtirish fakti yuzasidan tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini amalga oshiradi yoki xabarlar, arizalar bo'yicha tekshiruv ishlarini olib boradi. To'plangan materiallar tergovchiga jinoyat ishini qo'zg'atish va tergovni boshlash masalasini hal qilish uchun taqdim etiladi. Tezkor materiallarni amalga oshirish rejasi tuzilib, taktik operatsiyalar ishlab chiqiladi. Misol uchun: kechiktirib bo'lmaydigan "jinoyat ustida qo'lga olish", "bir vaqtda bir necha shaxslardan jinoiy daromadlarni olib qo'yish", "ish joyini tintuv qilish va ushlab turish", "bankdagi hisob-kitob raqamlarini xatlash", "bir vaqtning o'zida tegishli muassasalardan hujjatlarni olib qo'yish" shular jumlasidandir.

Shu sababdan, "oshkoralashtirishni tergov qilish uchun bank yoki tijorat sirini yengib o'tish zarur, biroq buning uchun avvalo, oshkoralashtirish fakti bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish kerak. Ayni vaqtda daromadning jinoiy ekanligini oldindan bilmay turib, jinoyat ishi qo'zg'atishning iloji yo'q"[13].

Agar jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng, shaxsning bir yoki bir necha oldin aniqlanmagan jinoyatni sodir etganligi to'g'risidagi ma'lumotlar olinganda yoki u bilan ishtirokchilikda yangi shaxslar jinoyat sodir etganligi aniqlangan hollarda qo'zg'atilgan jinoyat ishlarining yagonaligi yoki ko'pligi to'g'risida muammolar kelib chiqadi. Bunda, yangi jinoyat ishini qo'zg'atib, so'ng uni bitta jinoyat ishiga birlashtirish talab etiladimi yoki yangi jinoyat e'lon qilingan ayb mazmuniga kiritish lozimmi, degan savol tug'iladi[14].

Muallifning fikricha, jinoyat ishi birligi uning predmeti, vaqt, hudud, shaxslarga, shuningdek jinoyatning obyektivi yoki obyektiv tomoniga qarab bo'linmasligi bilan belgilanadi va aksincha jinoyat ishi predmetining aytib o'tilgan mezonlarga qarab bo'linishi jinoyat ishlarining ko'payib ketishiga olib keladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari yuzasidan tergovni rejalashtirish va tergov versiyasini yuritish ko'p hollarda tergov vaziyatlari, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv tadbirlari natijalariga bog'liqdir.

Rejalashtirish dalillarni aniq bir maqsadga qaratilgan holda qidirish vositasi bo'lib, tergovni tashkillashtiruvchi va yo'naltiruvchi asos bo'lib xizmat qiladi. U tergov masalalarini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlashdan, versiyalar tuzishdan, ularni tekshirish yo'llari va usullarini ishlab chiqishdan, ilmiy-texnik vositalardan va maqsadga yo'naltirilgan taktik usullardan maksimal keng foydalanishni ta'minlab berishdan iborat. Rejalashtirish ish bo'yicha haqiqatni

aniqlash uchun qanday tergov harakatlari zarurligini, har bir jinoyatchining harakatini fosh etilishini, to'liq va obyektiv tergovni ta'minlab berish uchun qanday ketma-ketlikda va qanday taktik jihatdan to'g'ri o'tkazish kerakligini aniqlashga qaratilgandir. Jinoyatchilik bilan kurashishda turli xil xizmat xodimlari ishtirok etadi, shuning uchun tergovni rejalashtirish ratsional tashkillashtirish vositasi bo'lib, juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari bo'yicha faoliyat bir qator tergov harakatlari, tezkor-qidiruv va boshqa chora-tadbirlarni o'tkazilishini talab etadi; ularning har biri jinoyat-protsessual qonunda belgilangan muddatlarga rioya etgan holda sinchkovlik bilan tayyorlanishi va o'tkazilishi kerak. Tergovning har tomonlama va to'liqligi ko'p jihatdan tergovning tezkor-qidiruv bilan o'zaro muvofiqlashtirishga bog'liq. Bundan tashqari, tergovchining yurituvida, odatda, bir emas, bir nechta ishlar bo'ladi. Rejalashtirish - bu to'g'ri ilmiy asosda qurilgan tergovchining ishini tashkillashtirishning zaruriy sharti.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergovni rejalashtirishda quyidagi tamoyillarga tayanish zarur; individuallik (o'ziga xoslik); muayyanlik; rejalashtirishning dinamikligi; amaliylik; fursatni boy bermasdan bajarish; rejalashtirishning davriyligiga.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergov qilishda rejalashtirishning uzluksizlik prinsipi eng yorqin tarzda amalga oshiriladi. Reja muntazam o'zgarib borishi mumkin, chunki ish jarayonida oldin hisobga olinmagan, ammo hal etilishini talab etuvchi yangi muammolar, alohida xususiy masalalar yuzaga keladi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atish vaqtida tergovchida dastlabki ma'lumotning yetishmasligi bilan bog'liq, tergovning dastlabki bosqichidayoq uning asosida tergovning rejaları o'zgaradigan va to'ldiriladigan, shuning uchun bajarilishi muddatini o'zgartiradigan yangi va muhim ma'lumotlar kirib keladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlar tergov ko'p epizodli va tezkor, tergov ma'lumotlarning kirib kelishi muddatning katta farqi, shuningdek yuzaga kelgan tergov vaziyatini hal etish uchun kriminalistik nuqtayi nazardan turli xil tergov harakatlarning qo'llanilishi bilan shartlangan davriylik tamoyili ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ko'rib chiqayotgan ishlar bo'yicha rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ogohlantiruvchi fe'l-atvoridir. Bu xususiyat odatda jinoyatni sodir etgan, ammo qo'lga olinmagan shaxslar, shuningdek uyushgan guruh a'zolarining ko'pincha o'z kriminal faoliyatini davom ettirish bilan fe'l-atvorlanadi. Bunda rejalashtirilgan chora-tadbirlar avvalambor, jinoyat qidiruv va IIBning boshqa xizmat xodimlarini hududida jinoyatchilarni paydo bo'lish ehtimoli mavjudligi haqida xabardor qilishdan boshlanishi kerak. Bu "mo'ljal"ning samaradorligini oshirish uchun sodir etish usullarining, jinoyatchilarning belgilarini iloji boricha batafsilroq ta'riflash zarur.

O'rganilgan jinoiy ishlar shuni ko'rsatadiki, rejaning bunday oldindan aytib berish punktlari qulay amalga oshirilgan holatlarda, ozodlikda qolgan jinoyatchilarni yangi harakatni tayyorlash jarayonidayoq muvaffiqiyatli qo'lga olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ko'p holatlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari haqidagi ishlarda shunday tergov vaziyati yuzaga keladiki, bunda jinoyatchi ma'lum, ammo qo'lga olinmagan yoki jinoyatchi umuman noma'lum bo'ladi. Bunday holatlarda tergovchining

harakatlarini tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini o'z vaqtida rejalashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

N.I. Kulaginning fikricha “tergovni rejalashtirish, tergovni oqilona tashkillashtirishning sharti bo‘lib xizmat qiladi va tergovning asosiy yo‘nalishlarini, shuningdek protsessual harakatlar va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish ketma-ketligini aniqlash bo‘yicha fikrlash faoliyatini o‘zida namoyon qiladi” deb ta’kidlaydi [15]. Shuning uchun, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatni tergov qilish jarayonida qo‘shimcha ma’lumotlarni olinishi (yoki dastlabki tekshiruvni o‘tkazilishi) dastlabki rejaga o‘zgartirish kiritilishi mumkinligiga e’tiborimizni qaratishimiz zarur. Shu xususida A.M. Larinning “rejalashtirish tergov jarayonida to‘xtovsiz to‘ldirilib, aniqlanib, ma’nosi o‘zgarib boradigan faktik ma’lumotlarni hisobga olinishiga asoslanadi” degan fikriga asoslanishimiz mumkin [16]. Shunga muvofiq, ravishda reja tergov jarayonida to‘ldirilib, o‘zgartirilib turadi. Shuning uchun, rejalashtirish jarayoni sodir etilgan jinoyatni qabul qilishdan, tergov harakatlarini amalga oshirish jarayonlarini va ayblov xulosasi tuzilguniga qadar uzluksizdir. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarining dastlabki bosqichda tergov qilish va ochish masalalari va berilgan tergov vaziyatlari bilan muvofiq ravishda, rejalashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir: 1) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari yuzasidan mo‘ljalni olish; 2) ish bo‘yicha tadqiq qilinishi kerak bo‘lgan faktlarni aniqlashtirish; 3) jinoyatni tergov qilish va dastlabki tekshiruvni o‘tkazishni rejalashtirish uchun boshlang‘ich ma’lumotlarni olish; 4) vaqt o‘tishi bilan mutlaqo yo‘qolishi mumkin bo‘lgan obyektlarni qidirish, yig‘ish va qayd qilish; 5) jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni aniqlash.

Bu ma’lumotlarning to‘liqliligi va sifatidan qat’i nazar tergovchi ularni tahlil qilib, tipik versiyalar asosida tergov harakatlarining majmuini va ketma-ketligini belgilashi kerak.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari tergovni rejalashtirishning ilmiy tahlili uning masalalari, darajalarini hisobga olib alohida faoliyat tizimida ko‘rib chiqilishini talab etadi.

Jinoyatning tergovni tashkil qilish bosqichlarida o‘tkazilayotgan tergov harakatlarining rejasini o‘zgartirish va aniqlashtirish, qo‘llanilayotgan usullar natijalarini, tergov harakatlari orqali olingan natijalar bilan qarama-qarshi aloqa mexanizmi vositasida taqqoslash yo‘li bilan amalga oshiriladi [17].

G‘.A. Abdumajidov fikricha, “tergovni rejalashtirishda, ayniqsa uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda har bir jinoyatchini e’tiborga olish lozim” [18].

Darhaqiqat, faqatgina bitta gumon qilinuvchi qo‘lga olingan vaziyatda, tergovni rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlari, dastlabki tergovda gumon qilinuvchining tutgan pozitsiyasi va xulq-atvoriga bog‘liq. Keyinchalik, tergov rejasini tuzgandan so‘ng tergovchi quyidagilarni bajarishi zarur: gumon qilinuvchining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish vaziyatlari va unga daxldor shaxslar haqidagi ko‘rsatmalarni ishonchliligini tekshirish; gumon qilinuvchi tomonidan yashirgan barcha ma’lumotlarni aniqlashga qaratiladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tergovchi ushbu jinoyatlar yuzasidan tergovni rejalashtirish va tergov versiyalarini yuritishda nafaqat jinoyat bo‘yicha

olingan ma'lumotlar, balki tergovni rejalashtirish va versiya yuritish, amalga oshirish va tekshirish yuzasidan berilgan kriminalistik tavsiyalar bazasidan ham foydalanishi lozim.

Tergovni rejalashtirishda versiya eng muhim o'rin egallaydi. Muammoli holatlarni hal etishga yo'naltirilgan jarayon: birinchidan, dastlabki ma'lumotlarni mantiq usullarini qo'llash orqali tekshirish (tahlil, sintez, analogik, statistik, induksiya, deduksiya, modellashtirish v.b.); ikkinchidan, psixologik qayta shakllantirish (nazarda tutilgan holatlarning taxminiy shakli, qiyofasi), holatga subyektiv fikr bildirishdir. Jinoyatni ochish va tergovni tashkil etishda samarali ijodiy jarayon sifatida tergov versiyasini tuzish va tekshirish namoyon bo'ladi. Versiyaning metodi sifatida mantiq bir vaqtning o'zida aniqlangan fakt yuzasidan tushuntirish va hali aniqlanmagan holat yuzasidan asosli qaror qabul qilish imkonini beradi.

Tergov versiyasining tushunchasi, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi masala muzokarali masalalar qatoriga kiradi, kriminalistik adabiyotlarda G.A. Abdumajidov, R.S. Belkin, L.Y. Drapkin, A.G. Fillipov, SH.N. Xaziyev kabi olimlar o'z ishlarida shu mavzuga alohida to'xtalib o'tishgan [19].

Versiya - bu faktlarning ro'y berish mohiyati yoki mavjudligi, shuningdek o'rganilayotgan hodisaning sabablarini tushuntirib beruvchi, mantiqda taxmin deb tushuniladigan gipotezaning bir turidir.

Hodisaning mohiyatini va uning barcha vaziyatlarini aniqlashtirish uchun tergovchi tergov versiyalarini yuritadi va tekshiradi. Boshqa so'z bilan aytganda ular umumiy (umumiy jinoyat belgilariga ega hodisani taxminan tushuntirish) ham, xususiy (bu hodisaning alohida tomonlari, elementlarini taxminiy tushuntirish) ham bo'lishi mumkin.

Tergov versiyalari hamma vaqt muayyan jinoiy ishining vaziyatlariga tegishli bo'lib, odatda, protsessual yo'l bilan olingan faktik ma'lumotlarga, ya'ni dalillarga asoslanadi va faqat tergov harakatlari orqali tekshiriladi, natijada yangi dalillarni hosil qiladi.

Versiyalar tergovning yo'nalishini belgilab beradi, shuning uchun ularni ishlab chiqish rejalashtirishning muhim va ma'suliyatli qismi hisoblanadi.

Faktning imkoni bor barcha istisnoli variantlarini o'ziga tasavvur etib (jinoiy ish predmetiga tegishli) tergovchi ro'y bergan hodisaning haqiqiy suratini aniqlaydi. Mavjud ma'lumotlarga asoslanib tergovning fe'l-atvori va yo'li haqida taxminlar yuritib, u faktlarni izlab topish yo'li va usullarini belgilab oladi. Bunday faktlarning aniqlanishi yoki aniqlanmasligi tergovning keyingi yo'nalishini ko'rsatuvchi mo'ljal bo'ladi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari bo'yicha yuritilgan versiyalarni ishlab chiqish va tekshirish jarayonida ular tobora detallashtirish. Versiyalarni detallashtirib tekshirish oqibatda, shaxsning ayblanuvchi sifatida jalb etish qarorni shakllanishiga va ish bo'yicha yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi.

Versiyalarni yuritish bo'yicha tergovchining faoliyati uchta elementdan iborat bo'ladi:

1. Dastlabki ma'lumotni olish va faktik bazani shakllantirish.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari bo'yicha faktik baza tergov harakatlari va tezkor-qidiruv chora-tadbirlari natijasida shakllanadi. Ya'ni tergovchining faktlarni yig'ish, detallashtirish va tartibga solish yo'li bilan shakllanadi. Ayrim holatlarda sodir etilgan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati haqidagi ma'lumotlar hajmi yetarli bo'lmaydi, bunday holda tergovchi ma'lumotlarning qo'shimcha manbalariga murojaat

qilishi lozim, ya'ni versiyalarning nazariy bazasiga murojaat etishi zarur. Versiyalarning nazariy bazasi - bu tergov qilinayotgan jinoyat ishi va uning protsessual doirasidan tashqarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar yig'indisi hisoblanadi.

2. Unga mantiqiy ishlov berish va nazariy bazasini shakllanishi.

Nazariy baza, ish bo'yicha noma'lum vaziyatlarga taxminan tegishli bo'lgan axborotlar yig'indisini o'zida namoyon etadi, bu tergov qilinayotgan jinoyatning analogik jinoiy ishlar bilan xayolan umumlashtirish natijasidir. Tergovchi tomonidan faktik bazaning tarkibini hisobga olgan holda umumlashgan ma'lumotlar (jinoyatning kriminalistik tavsifi, faktik prezumpsiyalar, tergovchining shaxsiy tajribasi, tajriba yordamidan tashqari bevosita murakkab yo'l bilan haqiqatni bilish qobiliyati, turli fanlarni bilishi va boshqalar)dir.

3. Yakunlovchi xulosalarni tuzish va versiyalarni shakllanishi.

Versiya jarayonning uchinchi elementi - faktik bazani dastlabki nazariy ma'lumotlar bazasi bilan umumlashtirish jarayonida ularning o'zaro ta'siri natijasida ehtimoldagi bilim shakllanadi va ilgari so'riladi.

L.Y. Drapkin aytganidek, versiya yuritish jarayonining samaradorligi va uning evristik imkoniyatlari faktik bazaning xususiyatiga bog'liq [20].

O'tkazilgan tadqiqotlar va yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatdiki, tergovchi jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyati yuzasidan versiyalarni yuritishda quyidagilarni hisobga olish zarur; versiyalar yuritishning faktik va nazariy bazasini; jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyatini sodir etgan shaxslar haqidagi xususiy versiyalar yuritilishining o'ziga xos xususiyatlarini.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini tergov qilishda tergovchining vazifasi nafaqat berilgan vaziyatdagi versiyalarni to'g'ri belgilash, balki ularni tekshirish taktikasini to'g'ri ishlab chiqishdan ham iborat, bu degani versiyalar yuritilganidan va aniqlanishi kerak bo'lgan masalalar belgilanganidan keyin tergovchi, u yoki bu versiyani tasdiqlovchi yoki rad etuvchi dalillarni qidirish uchun qanday tergov harakatlarini va qanday ketma-ketlikda o'tkazilishini aniqlab oladi.

Ko'p hollarda jinoyatchi jinoyatni sodir etganidan so'ng yashirinadi. Shunga o'xshash holatlarda versiyalar yuritish va tergov rejasini tuzishda, zaruriy dalillarni yig'ishda gumonlanuvchini aniqlash va ushlashga e'tibor beriladi. Bunday reja ustidan ishlashda eng muhimi – jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlarini sodir etish mumkin bo'lgan shaxslarga nisbatan versiyalarni yuritish va tekshirish zarur.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, tergovning dastlabki bosqichida, jinoyatchi topilmaganda, versiyalar jinoyatni sodir etish usuliga nisbatan yuritiladi.

Yuqorida ko'rilganlardan kelib chiqib, tergovchi va tezkor xodimlarga "inssenirovka" haqidagi versiyalarni tekshirish metodikasini tavsiya etish mumkin uning kiyimiga yetkazilgan ziyon haqidagi ma'lumotlar bilan taqqoslash;

Ko'rilayotgan muammoning keyingi aspekti jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini sodir etgan shaxslar soni haqidagi versiyalarni tuzish bilan bog'liq.

Uyushgan guruh tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati sodir etilganligi haqida o'z vaqtida versiyalar yuritilishi jinoyatchilar qidiruvini maqsadga muvofiq olib borish imkonini beradi.

Sahnalashtirish haqidagi versiyadan tashqari unga parallel ravishda boshqa versiyalar ustida ham ish olib borilishi kerak, ya'ni tanishlar, yaqin do'stlar, qarindoshlar, hamkasblar, hamkorlar doirasi tekshirilishi zarur.

Jinoyatchilar haqidagi guvohlarning ko'rsatmalari, ashyoviy dalillar, topilgan izlarni tadqiq qilish natijalari bilan muhim darajada to'ldirilishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, iloji boricha tergovning dastlabki bosqichida yoki tergovning keyingi bosqichlarida axborotning yig'ilishi jarayonida, jinoyatchini qidirishga yordam berishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar aniqlanadi.

Tergov amaliyotida versiyalar shakllanadi va tergovchi tomonidan hal etiladi. Ishning har bir aniqlanishi kerak bo'lgan vaziyatiga nisbatan versiyalarning tuzilishi obyektiv, har tomonlama va to'liq isbotlashning zaruriy shartidir.

Dastlabki operativ materiallar tergov versiyalarini ishlab chiqishga va ilgari surishga asos bo'lib xizmat qiladi, uning sifati esa tergovning muvaffaqiyatini oldindan belgilaydi. O'tkazilgan ishlarning to'liqligi va sifatiga bog'liq holda versiyalar aniqlikning yuqori yoki past darajalari bilan fe'l-atvorlanishi mumkin.

V.I. Batishev "versiyalarning tarkibi ishning tub vaziyatlari haqida taxminlarni hosil qiladi: isbotlash predmeti, isbotlovchi faktorlar haqida, shu vaziyatlarni aniqlab berishi mumkin bo'lgan manbalar haqida", - deya ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, versiyaning tarkibiga nafaqat yuqorida sanab o'tilgan faktorlar, balki ushbu faktorlarni topish yuzasidan tegishli ma'lumotlar ham aks etishi lozim. Vaziyatga kiritilgan o'zgarishlarning tahlili jinoyatchilar soni haqidagi alohida versiyalarni tuzishga imkon beradi.

G'.A. Abdumajidov versiyani quyidagicha ta'riflaydi, tergov versiyasi - bu tergovchining tekshirilayotgan hodisa mohiyati va sabablari, aybdor shaxslar va ular aybining xususiyati, ishning boshqa holatlari to'g'risidagi taxminidir. Bu ma'lumotlar va dalillarning mumkin qadar keng umumlashtirilishi, ularning yagona izoh bilan birlashtirilishi demakdir; versiya jinoyatni to'liq ochishga, jinoyatchilarni fosh qilishga, aybsizlarni oqlashga qaratilgan. Nihoyat, tergov versiyasi - bu tekshirilayotgan hodisalarning tergovchi tasavvurida fikran yaratilgan obrazi, modeli, shakl-shamoyili.

Keltirilgan fikrga ko'ra tergov versiyasi - fikrlash jarayonining uchta jihati: bilishga oid, mantiqiy va ruhiy jihatlari birligining natijasidir. Aynan shu bois kriminalistik nazariyada uning mohiyati xususida turlicha nuqtayi nazarlar tarkib topgan. Ushbu bir-biriga mos kelmaydigan xususiyatlar uchun umumiy bo'lgan narsa shuki, ularning barchasi murakkab, ko'p ma'noli versiya tushunchasining qirralaridan birini aks ettiradi. Insoniy fikr-mulohaza, fikriy obraz va modelning farazlari va izohlari sifatlarini jamlagan holda o'zida uyg'unlashtiradi.

Tergov versiyasi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi zarur:
haqiqiy bo'lib, daliliy ma'lumotlarni o'rganish asosida tuzilgan bo'lishi;
ilmiy ma'lumotlarga mos kelib, ularga qarshi chiqmasligi;
mantiqan to'g'ri tuzilgan va qarama-qarshiliklarga ega bo'lmasligi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyati yuzasidan versiya yuritishda ish yuzasidan to'plangan ma'lumotlardan foydalanish va u bilan bog'liq versiyaning mantiqiy ketma-ketligiga katta e'tibor qaratish lozim.

O'tkazilgan tadqiqotda shu aniqlandiki, amaliyotda tergovchi va tezkor qidiruv xodimlari versiya yuritishda har doim ham versiya yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy ma'lumotlardan foydalanmaydi, bu esa versiyani amaliy qo'llash to'g'risida metodik tavsiyalarni ishlab chiqish lozimligini ko'rsatmoqda.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlari yuzasidan versiyalar tuzishda tergov vaziyatlarining ahamiyati katta. Jinoyatlarni tergov qilishdagi ko'p yillik tajriba natijasida olingan ma'lumotlar kriminalistlarda ularni muayyan tiplarga va tizimlarga ajratish zaruriyatini keltirib chiqardi. Jinoyatlarni tergov qilishning eng maqbul yo'lini tez va to'g'ri tanlash maqsadida kriminalistika fanida xilma-xil tergov vaziyatlari bir necha guruhlariga, ya'ni tiplarga ajratildi va undan jinoyatlarni tergov qilishning samaradorligini oshirishga qaratilgan kriminalistik dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

Tergov vaziyatining o'ziga xosligi tergov qilinayotgan jinoyatning turi va xiliga, uning kriminalistik tuzilishining o'ziga xosligiga muayyan darajada bog'liq bo'ladi.

Tergov vaziyati-bu tergov ishlari olib borilayotgan jinoyat ishining muayyan vaqtdagi faktik (nima aniq) va muammoli (nimani aniqlash lozim) taraflarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Tergov vaziyatining mazmuni ma'lumotlar manbasining (jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida-jinoyat ishi qo'zg'atish sabablari) o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Ish bo'yicha tergov jarayonining dastlabki yoki jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida to'plangan tergov vaziyatlarini hisobga olmasdan turib, jinoyatlarni tergov qilishni tashkil etib bo'lmaydi. Tergov vaziyati tergov maqsadini belgilaydi va taktik vazifalarning zaruriy elementi hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tergov vaziyatining mazmuni faktik (tergovchiga ma'lum holatlar) va muammoli (nimani aniqlash lozim) taraflarga bo'linib, aynan tergov vaziyatining faktik tarafi tergov vaziyati mazmunining tavsifida namoyon bo'ladi. Tergov vaziyatining muammoli tarafi esa mazkur vaziyatda tergov qilishning tipga oid dasturi oldiga qo'yilgan vazifalar qatorida bo'ladi.

Aniqlangan ma'lumotlar hajmi va jinoyat ishini qo'zg'atish asosiga qarab dastlabki tergov vaziyatlarini ikki toifaga bo'lish mumkin.

1. Boshqa jinoyat ishini tergov qilishda aniqlangan va isbotlangan jinoiy daromadlarni legallashtirish holati aniqlanishi lozim: jinoiy ish materiallarida jinoiy daromadlarni legallashtirish bo'yicha harakatlar amalga oshirilganligi to'g'risida ishonchli ma'lumotlar bo'lganda; legallashtirish jinoyatini yoki o'zga shaxsning jinoiy daromadini legallashtirgan shaxs aniqlangan hollarda legallashtirilgan jinoiy daromadning miqdori va turgan joyi to'g'risida ma'lumotlar bo'lmaganda.

2. Jinoiy daromad olish uchun sodir etilgan jinoyat bo'yicha ish qo'zg'atilgan va tergov ishlari olib borilayotgan bir paytda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qaratilgan quyidagi harakatlar aniqlanganda: jinoiy daromad olgan shaxs bir paytning o'zida jinoiy daromadni yashirish va unga qonuniy tus berishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa; jinoiy daromadlarni legallashtirishga qaratilgan harakatlarni sodir etgan shaxs jinoyat ustida qo'lga olingan bo'lsa; shaxs, legallashtirish maqsadida jinoyat natijasida olingan daromadlarni qonuniy iqtisodiy faoliyat natijasida olingan daromadlar bilan (aralashtirish) birlashtirganda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tipga oid tergov versiyalari quyidagi asoslarni inobatga olgan holda, tipga oid tergov versiyalarini ilgari surishga shart-sharoit yaratadi.

1. Aniqlangan yoki taxmin qilinayotgan jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish usuliga qarab tegishli versiya ilgari suriladi: legallashtirish predmeti, uni joylashtirish yo'li yoki saqlash joyi; jinoiy daromadlarni olish manbalari va ularni konsentratsiyalash, to'plash va legallashtirish izlarini yashirish usullari; legallashtirilgan jinoiy daromad hajmining jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadga mos kelishi; jinoiy daromadlarni legallashtirishda foydalanilgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari turlari; jinoiy olingan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq bitim turlari; jinoiy daromad topgan shaxsning jinoiy daromadlarini legallashtirishga qaratilgan harakatlari; jinoiy yo'l bilan olingan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklarni legallashtirish bo'yicha harakatlarning boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilishi, jinoiy daromadlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga rozilik bergan shaxslar yoxud daromadning jinoiy yo'l bilan topilganligini oldindan bilmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan harakatlar.

2. Jinoyatni sodir etgan subyektga qarab quyidagi versiyalar ilgari suriladi: jinoyat sodir etish natijasida bevosita noqonuniy pul mablag'lari va boshqa mol-mulk olgan shaxs (jinoiy guruh tarkibida); boshqa shaxslar tomonidan jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish bo'yicha harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs; bevosita ijrochilar, ularning asosiy funksiyalari va korrupsion aloqalari.

3. Legallashtirish joyi va sharoitiga qarab quyidagi versiyalar ilgari suriladi: jinoiy daromad turiga qarab legallashtirish mumkin bo'lgan moliyaviy-xo'jalik faoliyati sohasi haqida; jinoiy yo'l bilan olingan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkni legallashtirish maqsadida soxta firmalar, banklar yoxud boshqa soxta iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga oid tergov versiyalari ilgari suriladi.

Yuqorida keltirilgan holatlar jinoiy daromadlarni legallashtirishni tergov qilish bo'yicha quyidagi tergov vaziyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

Birinchidan, jinoiy daromadlarni legallashtirish fakti bazaviy (asosiy) jinoyatni tergov qilishda aniqlanadi.

Ikkinchidan, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qaratilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq shubhali operatsiyalar to'g'risida ma'lumot berish majburiyati yuklatilgan tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Uchinchidan, jinoiy daromadlarni legallashtirish fakti O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining tezkor-qidiruv bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati jarayonida aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 243-moddasi tahririni "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish" jinoyatini Jinoyat kodeksining 3-bo'limiga, ya'ni "iqtisodiyotga qarshi jinoyatlar" toifasiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

REFERENCES

1. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. (M.Usmonaliyev.-T., "Yangi asr avlodi", 2005, (662) 67 b.)

2. Криминалистика: учебник для студентов вузов под ред. А.Ф. Волынского, В.П. Лавров.-2-е изд., перераб. и доп. – М.:ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2008. – С. 669
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi "Iqtisodiy jinoyatlarga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi O‘RQ-516-son Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/4163506>
4. Rustamboyev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. *V tom*. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik. – T.: “ILM ZIYO”, 2011. (312) 16 b.
5. Алиев В.М., Третьяков И.Л. Уголовная ответственность за легализацию (отмывание) денежных средств или иного имущества, приобретенных преступным путем// Российский следователь. 2002.№5.С12.
6. Клепиский И.А. “Отмывание денег” в современном уголовном праве//Государство и право, 2002. №8С.17.
7. Алешкин А. И. Предмет доказывания и особенности оценки доказательств при расследовании преступлений, связанных с легализацией (отмыванием) денежных средств или иного имущества приобретенного незаконным путем. Дис. канд. юрид. наук: 12.00.09 .-М.: РГБ, 2003 121.ст.
8. Korruptsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy seminar ma‘ruzalar to‘plami/O‘zR Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari, Germaniyaning huquq sohasidagi hamkorlik fondi; tuzuvchi V.V. O‘rinov; masul muharrir T.A. Umarov.-T.: “Chashma Print” , 2010. (424)-251 b.
9. Осуществления оперативно-розыскной деятельности при выявлении фактов легализации доходов, полученных преступным путем. Зуев С.В./Российский следователь.№5-2006/. с. 32-34
10. Осуществления оперативно-розыскной деятельности при выявлении фактов легализации доходов, полученных преступным путем. Зуев С.В./Российский следователь.№5-2006/. с. 32-34
11. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2009 yil, 17-son, 210-modda.
12. Осуществление оперативно-розыскной деятельности при выявлении фактов легализации доходов, полученных преступным путем. Зуев С.В./Российский следователь.№5-2006/. с. 32-34.
13. Mirzaraimov I.M. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirishga qarshi kurashishning huquqiy choralari: O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008-9-b.
14. Смирнов А.В. Возбуждение уголовных дел по новым фактам и в отношении новых лиц./Уголовный процесс №8 август 2009 /с 1-5.
15. Кулагин Н.И. Планирование расследования сложных многоэпизодных дел: Учебное пособие. — Волгоград, 1976. 62 с.

16. Ларин А.М. Расследование по уголовному делу. Планирование и организация. — М.: Юрид.лит., 1970.— 223с
17. Макаренко Е.И.Расследование разбойных нападений с проникновением в жилища. Т.: 1991. 30 с.
18. Абдумажидов Г'.А. Типовая криминалистическая характеристика групповых преступлений. В сб.: «Алгоритмы и организация решения следственных задач». — Иркутск, 1982. — 60с.
19. Абдумажидов Г'.А. Криминалистика. –Т.: Адолат, 2003. Т.1. 216-б., Р.С.Белкин Криминалистика: проблемы, тенденции, перспективы.М.:1988., Драпкин Л.Я. Построение и проверка следственных версий. Дис. канд.юр.наук.М.:, 1972. С.18., Хазиев Ш.Н. Техничко-криминалистические методы установления признаков неизвестного преступника по его следам.М.: 1986., Филиппов А.Г.Общие положения криминалистической методики.М.:2000.
20. Драпкин Л.Я. Построение и проверка следственных версий. Дис. канд.юр.наук.М.:, 1972. С.18